

KASBI-HUNAR O'RGATISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi

17 umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Matyoqubova Xurshida Qo'ziboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi

17 umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Madraximova Maftuna Ravshonbekovna

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada kasb-hunarga o'rgatish tizimidagi zamonaviy yondashuvlar, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, dual ta'lim tizimi, masofaviy o'qitish, ustoz-shogird an'anasi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga doir ilg'or tajribalar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: kasb-hunar, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, amaliy mashg'ulot, raqamli texnologiya, dual ta'lim, motivatsiya, ustoz-shogird.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются современные подходы к профессиональному обучению, инновационные методы, направленные на развитие практических навыков у студентов. Также рассматриваются вопросы использования цифровых технологий в образовательном процессе, дуальная система образования, дистанционное обучение, традиции наставничества и студентов, лучшие практики повышения мотивации студентов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: профессия, современное образование, инновационный подход, практическое обучение, цифровые технологии, дуальное образование, мотивация, наставничество.

ANNOTATION: This article analyzes modern approaches to vocational training, innovative methods aimed at developing practical skills in students. It also covers the use of digital technologies in the educational process, the dual education system, distance learning, the tradition of mentoring and students, and best practices in increasing student motivation.

KEY WORDS: profession, modern education, innovative approach, practical training, digital technology, dual education, motivation, mentoring.

KIRISH

XXI asrda kasb-hunar ta'limi tizimining rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy va texnologik taraqqiyotiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, bugungi mehnat bozorining talablariga javob beradigan, zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega yosh kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari kasb-hunar o'rgatishning samaradorligini oshiradi. Shu sababli pedagoglar tomonidan zamonaviy uslublarni o'zlashtirish va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Zamonaviy yondashuvlarning zarurati

Kasb-hunar ta'limi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan holda, o'quvchilarning real mehnat sharoitlariga tayyor bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, interaktiv metodlar, masalali yondashuv, loyiha asosida o'qitish, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari va modulli tizimlar qo'llanilishi lozim. Misol uchun, tikuvchilik kasbini o'rgatuvchi o'quv muassasada darslar ishlab chiqarish korxonasida tashkil etilishi nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Dual ta'lim tizimining afzalliklari

Dual ta'lim modeli Germaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda yuqori natijalar bergan. Bu tizimda o'quvchi haftaning bir qismini darsda, qolgan qismini ishlab chiqarishda o'tkazadi. O'zbekiston tajribasida ham bu model joriy qilinmoqda. Masalan, ayrim texnikumlarda metallsozlik, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari kabi yo'nalishlarda talaba-kollej va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida uch tomonlama shartnoma asosida amaliyot o'tkazilmoqda. Bu nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki o'quvchining o'ziga ishonchini oshiradi. Zamonaviy dunyoda raqamli vositalardan foydalanmasdan ta'lim jarayonini samarali tashkil etib bo'lmaydi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, masofaviy darslar — bularning barchasi kasb-hunarga o'rgatishda qo'llanilmoqda. O'zbekistonda Moodle, EduMarket, Ziyonet kabi platformalar faol foydalanilmoqda. Misol uchun, santexnika bo'yicha o'quv kursida virtual video-darslar orqali butun o'rnatish jarayonini onlayn kuzatish va o'rganish imkoniyati yaratilgan. Bu esa amaliy mashg'ulotlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish

Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatishda ularning o'z qobiliyatlarini anglashlari, kelajak kasbini sevib tanlashlari muhimdir. Shu bois gamifikatsiya (o'yinlashtirish), loyiha uslubida o'qitish, tanlovlar va musobaqalar orqali rag'batlantirish zarur. Masalan, "Eng yaxshi yosh payvandchi" kabi tanlovlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etganlarida oz miqdorda mehnat haqi olish orqali o'z mehnatining qiymatini his qiladilar. Milliy ta'lim tizimida qadimdan ustoz-shogird an'anasi mavjud. Bu tizimda tajribali mutaxassis yosh o'quvchini kasb sirlariga o'rgatadi, unga amaliy mashg'ulotlarda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Hozirda bu tizim zamonaviy shaklda qayta tiklanmoqda. Texnikumlar va kasb-hunar maktablarida har bir o'quvchiga malakali ustoz birlashtirilib, u orqali o'quvchi kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.

XULOSA

Kasb-hunarga o'rgatishning zamonaviy uslublari ta'limning mazmuni va sifatini oshirish, o'quvchilarni real mehnatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Dual ta'lim tizimi, raqamli vositalar, interaktiv metodlar, motivatsiya vositalari va ustoz-shogird tizimi orqali o'quvchilarda mustahkam kasbiy bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Shu bois pedagoglar doimiy ravishda o'z ustida ishlashlari, innovatsion yondashuvlarni egallashlari va har bir o'quvchining qobiliyatlarini inobatga olgan holda dars o'tishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch." T.: Ma'naviyat, 2008.

"Professional ta'limning zamonaviy tizimi." O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtamaksus ta'lim vazirligi nashrlari, 2021.

Xamidova M.M. "Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar." T.: Fan vatexnologiya, 2020.

World Bank Report on Technical and Vocational Education, 2022.

www.edu.uz — O'zbekiston Respublikasi Ta'lim portali.

Dual Education Models. UNESCO-UNEVOC, 2023.